

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI
fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lif sohasi:	230000	- Iqtisod
Ta'lif yo'nalishi:	5230900	- Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar va sohalar boyicha)

Qarshi-2022 y

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2022 yil “22” 06 dagi 21-sonli, “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil “24” 06 dagi 11-sonli, “Iqtisodiyot” fakulteti Kengashining 2022 yil “24” 06 dagi 11-sonli, Institut Kengashining 2022 yil “28” 06 dagi 11-sonli yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Tuzuvchi: Alikulov A. “Buxgalteriya hisobiva audit” kafedrasi mudiri,
i.f.f.d.

Taqrizchilar:

- | | |
|---------------------|--|
| G.J.Jumayeva | - QarMII, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti,
iqtisod fanlari nomzodi. |
| S.I.Samiyev | - QarMII, “Moliya” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari falsafa
doktori. |

I. O'QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA'LIMDAGI O'RNI

Ushbu dasturda uzviylik va uzlusizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o'z aksini topgan xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining mohiyati, O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat tizimida xalqaro valyuta va kredit munosabatlarining tutgan o'rnini o'rganish, Respublikamiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. "Xalqarovalyuta-kredit munosabatlari" fani milliy iqtisodiyot uchun xalqaromoliyachi mutaxassislarni tayyorlashda asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan orqali talabalar xalqaro valyuta, hisob-kitoblar va kredit, xorijiy investitsiyalar borasida bilimlarga ega bo'ladi. Unda xalqaro valyuta tizimi, valyuta operatsiyalari, xalqaro kreditning harakati va undan foydalanish, tashqi iqtisodiy operatsiyalarga valyuta munosabatlarining ta'siri, to'lov balansining mohiyati va unga ta'sir yetuvchi omillar va boshqaistiqboli hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor masalalari o'rganiladi.

Talabalarning ushbu fanni chuqur o'rganishi xalqaro valyuta-kredit munosabatlari asoslari, valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar, xalqaro kredit munosabatlari, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya bozori, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari tizimida risklarni boshqarishda zamin bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fani "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi tarkibida xalqaro valyuta kredit munosabatlari asoslari, valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar, xalqaro kredit operatsiyalari, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya instituti, xalqaro moliya bozori, xalqaro valyuta-kredit munosabalarida risklarni boshqarishni kompleks ravishda o'rganishini nazarda tutadi.

II. O'QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

"Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fanining asosiy maqsadi talabalarda: jahon valyuta-kredit tizimi, uning tarkibi, funksiyalari va amalqilish mexanizmlarini chuqur o'rganish, global valyuta-kredit bozorlari, ularda yuz berayotgan o'zgarishlarni tizimli va kompleks tahlil qilishni o'rganish bo'yicha yo'nalishiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan bo'yicha talabalar xalqaro valyuta-kredit bozorlari o'zgarishlariga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, xalqaro munosabatlarning rivojlanishida valyuta mexanizmidan foydalanish, xalqaro kapital harakatining erkinlashuvi, jahon ssuda kapitali bozoridagi operatsiyalarni o'rganishlari va o'zlashtirishlari, bilim, ko'nikma va malakasiga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

- xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining maqsad va vazifalari;
- valyuta-kredit munosabatlarining nazariyasi va amaliyoti;
- valyuta tizimi va valyuta munosabatlari, valyuta kursi, valyutaoperatsiyasi, valyuta siyosatining asosiy shakli;
 - Markaziy bankning valyuta siyosati;
 - xalqaro hisob-kitoblar valyutalarning turlari;
 - hisob-kitob va to‘lov balansi;
 - xalqaro kredit;
 - valyuta inqirozi va uning turlari;
 - tashqi savdoni kreditlash;
 - to‘lov balansi;
 - hisob-kitob balansi;
 - xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari va ular bajaradigan operatsiyalar **haqida tasavvurga ega bo‘lishi**;
 - valyuta munosabatlari va valyuta tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini;
 - valyuta tizimi elementlarini;
 - milliy, mintaqaviy va jahon valyuta tizimlarining o‘ziga xos hususiyatlarini;
 - valyuta kursining shakllanishi va unga ta’sir etuvchi omillarni;
 - valyuta pariteti va uning xususiyatlarini;
 - valyuta kursini prognozlashtirish usullarini;
 - valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini;
 - valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini;
 - xalqaro kredit va uning turlarini;
 - xalqaro kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini shakllanishini;
 - to‘lov va hisob-kitob balanslarini tarkibiy tuzilishini;
 - xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari va ularning faoliyat yo‘nalishlarini;
 - -xalqaro valyuta-kredit tashkilotlarini O‘zbekiston Respublikasibidan hamkorlik aloqalarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
 - valyuta kursini shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish;
 - mamlakatda valyuta tizimini tashkil etish;
 - valyuta kurslariga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
 - valyuta kurslaridan foydalanishni;
 - xalqaro hisob-kitoblaridan foydalanish;
 - to‘lov balansi barqarorligigni ta’minlash;
 - xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari bilan hamkorlik yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha **ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.**

III. FANNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI HAMDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH

Fanni o'qitishda interfaol, kommunikativ, perceptiv yondashuvlardan maksimal darajada foydalanish, o'quv adabiyotlaridan tashqari autentik materiallar: audio, video, jurnallar, internet manbalaridan o'zlashtirilgan bilimlar majmuasini amaliyotda kuzatilayotgan dalil va hodisalarga bog'lay olish, olingan natijalarini baholash, tahlil qilish orqali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va kompetensiyalarni innovatsion tafakkur layoqati negizida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash jarayonida:

- mezonni tanlash;
- o'quv maqsadlarini toifalash;
- o'quv materiallarini modullashtirish;
- ularni o'rganish, tahlil qilish va qayta ishslash;
- o'rganish natijalarini aniqlash kabi omillarga qaratish orqali ta'lism oluvchida nazariy bilimlar puxta egallanishi hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'limi samarali tashkil etish talab etiladi.

IV. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUDA MASHG'ULOTLARI)

1-mavzu. "Xalqaro valyuta kredit munosabatlari" fanining predmeti va vazifalari

Mazkur fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda kursning maqsadi va vazifalari. Fanning tarixiy shakllanish bosqichlari. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri. Xalqaro valyuta- kredit munosabatlari rivojlanishining dolzarb masalalari.

2-mavzu. Tashqi iqtisodiy aloqalarda xalqaro valyuta munosabatlarining roli.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarning funksiyalari va turlari. Tashqi iqtisodiy munosabatlarning muhimligi va valyuta munosabatlarning obyektiv zarurati. Globalizatsiya va uni jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri. "Valyuta munosabatlari" tushunchasining mazmuni va ularning yuzaga kelishining obyektiv sabablari. Valyuta tizimi va uning asosiy turlari. Milliy valyuta tizimi va uning asosiy elementlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining valyuta munosabatlariga ta'siri.

3-mavzu. Jahon valyuta tizimi evolyusiyasi

Valyuta tizimini rivojlanish tarixi. Parij valyuta tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Oltin standarti inqirozi, uning xususiyatlari va oqibatlari. Parij konferensiyasi va unda e'lon qilingan valyuta standarti. Oltin-deviz standartining inqirozi, davomiyligi, sabab va oqibatlari. Genuya valyuta tizimining standarti, o'ziga

xosligi, xususiyatlari va kamchiliklari. Bretton- Vuds valyuta tizimining paydo bo‘lishi, xususiyatlari. Bretton-Vuds valyuta tizimidagi yangiliklar va ularni jahon valyuta tizimidagi ahamiyati. Yamayka valyuta tizimi va uning standarti. Oltin “demonetizatsiyasi”ning jahon valyuta tizimi uchun ahamiyati. Zamonaviy valyuta tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.

4-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimi

O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimining shakllanish bosqichlari. O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimini rivojlanish bosqichlari. O‘zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi. O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimining elementlari. O‘zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi. Zamonaviy O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.

5-mavzu. Valyuta kursi va unga ta’sir etuvchi omillar

Valyuta kursining mazmuni va ahamiyati. Valyuta kursining asosiy turlari. Valyuta kursining kotirovkasi va uning turlari. Valyuta kursi o‘zgarishining jahon valyuta bozorlaridagi operatsiyalarga ta’siri. Valyuta kursining rejimlari. Valyuta kursini o‘ranitilishi. Valyuta pariteti va uning ahamiyati. Kross-kurs, uni hisoblanishi va ahamiyati. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minlash yo‘llari. Kross-kursni hisoblash. Forvard kursini hisoblash.

6-mavzu. Valyuta operatsiyalari

“Valyuta operatsiyalari” tushunchasining mohiyati va uni amalga oshirishning asoslari. Valyuta operatsiyalarining asosiy turlari. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish masalalari. Spot operatsiyalari ularni o‘tkazish tartibi, xususiyatlari. Svop, forward va fyuchers operatsiyalari, ularning xususiyatlari va amalga oshirish tartibini ko‘rib chiqish. Valyuta operatsiyalari va valyuta arbitrajlari, ularni o‘tkazish tartibi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida valyuta bozorini tartibga solish va valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.

7-mavzu. Markaziy bankning valyuta siyosati

Valyuta siyosati tushunchasining mazmuni va asosiy turlari. Valyuta siyosatining asosiy shakllari. Xalqaro valyuta siyosatidagi asosiy yo‘nalishlari va ularning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar. Markaziy bank valyuta siyosatining maqsadi va asosiy vazifalari. Markaziy bankning xalqaro operatsiyalari. Diskont vayuta siyosati. Deviz valyuta siyosati. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking valyuta siyosatidagi o‘ziga xosliklar: valyutaviy cheklovlarini qo‘llash. Valyutaviy cheklovlarining maqsadi va ularni yumshatish bo‘yicha chora- tadbirlar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida valyuta siyosatining o‘ziga xos jihatlari.

8-mavzu. Tijorat banklarida xalqaro hisob-kitob shakllari

Xalqaro hisob-kitoblar: mazmuni, amalga oshirish asoslari va turkumlanishi. Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllari. Xalqaro hisob-kitoblarda ishlataladigan hujjatlar va ularning turlari. Xalqaro hisob-kitoblarda veksel va cheklardan foydalanish.

Xalqaro hujjatlashtirilgan inkasso va u bo'yicha hisob-kitoblar. Xalqaro hujjatlashtirilgan akkreditiv va u bo'yicha hisob-kitoblar. O'zbekiston Respublikasida xalqaro hisob-kitoblarning shakllari va ularni rivojlantirish masalalari. Xalqaro hisob-kitoblar shakllarining alohida olingan mamlakatlar uchun ijobjiy va salbiy tomonlari va ularni mamlakat xususiyatidan kelib chiqqan holda qo'llash imkoniyatlari.

9-mavzu. Tijorat banklarida xalqaro kredit shakllari va xisob-kitob shartlarining qo'llanilishi

Xalqaro kredit tushunchasining mazmuni. Xalqaro kreditning asosiy shartlari. Yevroobligatsiyalar bozori va uning xususiyatlari. Xalqaro kreditning asosiy shakllari. Firma krediti, bank krediti, aksept-rambursli kreditlar, uzoq muddatli va qisqa muddatli xalqaro kreditlar. Mamlakat kredit reytingi, uning aniqlanishi va turlari. Alovida reyting agentliklari tomonidan suveren kredit reytingini hisoblash tartibi. Kichik biznesni rivojlantirishda xalqaro kreditlarni tutgan roli. Tashqi savdoni kreditlashning asosiy shakllari. Xalqaro faktoring va forfeyting operatsiyalari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari.

10-mavzu. Xorijiy investitsiyalarni jaib etishda moliyaviy institutlarning roli

Xorijiy investitsiyalar va ularning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati. To'g'ridan-to'g'ri va portfel xorijiy investitsiyalar. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jaib etish yo'llari. Investitsiya muhiti. Erkin iqtisodiy zonalar va TMKlar. Xorijiy investitsiyalarni xalqaro harakatini tartibga solish.

11-mavzu. Xalqaro moliya tizimida xalqaro moliya institutlarining roli.

Xalqaro moliya institutlarining tasniflanishi. Xalqaro moliya institutlari tomonidan bajariladigan asosiy funksiyalar. Xalqaro Valyuta Fondining maqsadi va faoliyatining mohiyati. Jahon banki guruhi va unga kiruvchi tashkilotlar faoliyati. Mintaqaviy valyuta-kredit va moliya tashkilotlari. O'zbekistonning xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari.

12-mavzu. Mamlakat to'lov balansi.

To'lov balansining mazmuni va tarkibi. To'lov balansini tuzishga qo'yiladigan talablar. To'lov balansini tuzish konsepsiylari. To'lov balansini tuzilishi. Tashqi savdo balansi va uning tuzilishi. To'lov balansining defitsiti va uni qoplash usullari. To'lov balansining aktiv qoldig'ini ta'minlash yo'llari. To'lov balansi holatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri. Hisob-kitob balansi va uning to'lov balansidan farqi. Rivojlangan davlatlarning to'lov balansi. Riovjlanayotgan davlatlar to'lov balansining o'ziga hos jihatlari.

V. AMALIY MASHG'ULOTLARLAR BO'YICHA KO'RSATMA VATAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni

chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg‘otish;

- talabada natijani mustaqil ravishda qo‘lga kiritish imkoniyatini ta’minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg‘ulotlar nafaqat aniq mavzu bo‘yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Xalqaro valyuta kredit munosabatlari” faniga kirish.
2. Valyuta munosabatlari va valyuta tizimi.
3. Jahon valyuta tizimi evolyusiyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimi.
5. Valyuta kursi va unga ta’sir etuvchi omillar.
6. Valyuta operatsiyalari.
7. Markaziy bankning valyuta siyosati.
8. Tijorat banklarida xalqaro hisob-kitob shakllari.
9. Tijorat banklarida xalqaro kredit shakllari va xisob-kitob shartlarining qo‘llanilishi.
10. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda moliyaviy institutlarning roli.
11. Xalqaro moliya tizimida xalqaro moliya institutlarining roli.
12. Mamlakat to‘lov balansi.

VI. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. “Xalqaro valyuta kredit munosabatlari” faniga kirish.
2. Valyuta munosabatlari va valyuta tizimi.
3. Valyuta munosabatlarining iqtisodiy mohiyati va valyuta tizimlari.
4. Jahon valyuta tizimi evolyusiyasi.
5. Yevropa valyuta tizimi va uning rivojlanish xususiyatlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimining rivojlanishi.
7. Valyuta munosabatlarini tartibga solish va valyuta siyosatining nazariy asoslari.
8. Valyuta kursi va unga ta’sir etuvchi omillar.
9. Valyuta operatsiyalari va ularning mohiyati.
10. Valyuta siyosatining asosiy shakllari.
11. Xalqaro hisob-kitob shakllari va ulardan foydalanish amaliyoti.
12. Xalqaro kredit shakllari va xisob-kitob shartlarining qo‘llanilishi.
13. Xalqaro kapitalni jalb etish yo‘llari.
14. Valyuta kursi rejimlari.
15. Joriy va spot valyuta operatsiyalari.

16. Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari.
17. Forvard valyuta operatsiyalari.
18. Fyuchers shaklidagi valyuta operatsiyalari.
19. Opcion shaklidagi valyuta operatsiyalari.
20. Valyutaviy svop operatsiyalari.
21. O‘zbekistonda muddatli valyuta operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari.
22. Valyuta bozorida forward kursining aniqlanishi.
23. Foiz stavkasi bilan bajariladigan forward operatsiyasi (FRA).
24. Foiz stavkalari opsiyonlari.
25. Naqd pul (valyuta) o‘tkazmalarini va ularni amalga oshirish tartibi.
26. Xalqaro to‘lov kartalari va ulardan foydalanish tartibi.
27. Xalqaro xisob-kitoblarning akkreditiv shakli.
28. Xalqaro xisob-kitoblarning inkasso shakli.
29. Xalqaro hisob-kitoblarda to‘lov topshirqnomasi va cheklardan foydalanish.
30. Mamlakat to‘lov balansini boshqarish usullari.
31. Xalqaro kredit munosabatlari ishtirokchilari faoliyati.
32. Ko‘p tomonlama xalqaro davlat kreditlari.
33. Xalqaro xususiy firmalar (tijorat) kreditlari.
34. Xalqaro bank kreditlari.
35. Xalqaro kreditning to‘lov va xisob-kitob shartlari.
36. Xalqaro kredit liniyasi orqali kreditlash mexanizmi.
37. Xalqaro kredit foiz stavkalari, foiz svoplari.
38. Xalqaro kredit bozori mahsulotlari.
39. Xalqaro kredit reytinglari.
40. Xalqaro kredit munosabatlari tizimida tashqi qarzdorlik.
41. Xalqaro kredit munosabatlari va tashqi qarzdorlikni tartibga solish.
42. O‘zbekistonda xalqaro kredit operatsiyalaridan foydalanish amaliyoti.
43. Xalqaro kreditlar bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari.
44. Xalqaro kapital migratsiyasi.
45. Xalqaro kapital jalb etishning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati.
46. Xalqaro kapital harakatini tartibga solishda moliyaviy instittlarning roli.
47. Xalqaro kapital bozori rivojlanishi tendensiyalari.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsija etiladi.

Fanning ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqishda mustaqil ta’lim vamustaqil ish mavzularida qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsija etiladi.

VII. FAN BO‘YICHA KURS ISHI (LOYIHASI)

O‘quv rejada fan bo ‘yicha kurs ishi rejalahtirilmagan.

VIII. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Bobaqulov T.I., Abdullaev O‘.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. Iqtisod-moliya. 2019. – 324 b.
2. Baburina N. Mejdunarodnye valyutno-kreditnye i finansovye otnosheniya. Uchebnoe posobie. – M.: Yurayt, 2016. – 171 s.
3. Krasavina L.N. Mejdunarodnye valyutnye, kreditnye i finansovye otnosheniya. Uchebnik M.: Yurayt. 2016. — 543 s.
4. Moiseev S.R. Sentralnyy bank i politika valyutnogo kursa. Uchebnoe posobie. – M.: Delo, 2017. – 624 s.
5. Sviridov O., Lisochenko A. Mejdunarodnye finansy. – Rostov n/D.: Feniks, 2015. – 395 s.
6. Xasbulatov R.I. Mejdunarodnye valyutno-finansovye otnosheniya. Uchebnik. / R. I. Xasbulatov. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2016. – 174 s.
7. Xasbulatov R.I. Mejdunarodnye finansy v 2 ch. Chast 1. 2-ye izd., per. i dop. Uchebnik. / R. I. Xasbulatov. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019. – 408 s.
8. Xasbulatov R.I. Mejdunarodnye finansy v 2 ch. Chast 2. 2-ye izd., per. i dop. Uchebnik. / R. I. Xasbulatov. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019. – 332 s.
9. Eskindarov M., Zvonova Ye. Mejdunarodnye valyutnye otnosheniya. Uchebnik. – M.: KnoRus, 2018. – 540 s.
10. Felix I. Lessambo. International Financial Institutions and Their ChallenGES. A Global Guide for Future Methods. Palgrave Macmillan Us. Textbook. 2015. – 261 p.
11. Paul R. Krugman. Maurice Obstfeld, Marc Melitz. International economics:theory & policy/Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc J. Melitz. – 9th ed. Textbook. 2018. – 782 p.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

12. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 iyuldaggi «Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtiropidagi loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3857-sonli Qarori. (<http://www.lex.uz>).
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 iyundagi «Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar ishtiropidagi investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3796-sonli Qarori. (<http://www.lex.uz>).
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 oktyabrdagi

«Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalarini tartibga solishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3333-sonli Qarori. (<http://www.lex.uz>).

16. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

17. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

18. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

19. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

20. Bloxina I.M. Mejdunarodnye finansovye organizatsii i ix rol v mejdunarodnykh finansovyx otnosheniyax. «Ekonomika i sotsium» №3(34)2017.

21. Zaxarkina A.V., Zavodskix A.A., Loseva Ye.D. Finansovye instituty Bretton-Vudskoy sistemy v globalnom publichnom finansirovani // Nauchnoe obozrenie. Ekonomicheskie nauki. – 2017. – № 2. – S. 43-46.

22. Kuznesov A.V. Mejdunarodnye finansovye instituty i vyizovы mnogopolyarnosti. Vestnik RUDN. International Relations. 2017 Vol. 17 No 1. s.9-21.

23. Lavrushin O.I., Dengi, kredit i banki -M.: Knorus , 2016-448 s.

24. Xazanovich Ye., Yunusov L., Yunusov I. Mejdunarodnye finansы. Uchbenik. – M.: KnoRus, 2017. – 334 s.

25. Eskindarov M., Zvonova Ye. Mirovые finansы. Uchebnik. – M.: KnoRus, 2017. – 424 s.

26. David K. Eiteman, Arthur I. Stonehill, Michael H. Moffett. Multinational Business Finance (15th Edition) (Pearson Series in Finance) 15th Edition. Textbook. 2018. 640 p.

27. Cheol Eun, Bruce G. Resnick. International Financial Management (The McGraw-hill/Irwin Series in Finance, Insurance, and Real Estate) 8th Edition. Textbook. 2017. 576 p.

INTERNET SAYTLARI

28. www.gov.uz – (O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali).

29. www.press-service.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiningmatbuot xizmati).

30. www.stat.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika q‘mitasi rasmiy veb sayti).

31. www.lex.uz – (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

32. www.mf.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb sayti).

33. www.unctad.org – (BMTning Savdo va rivojlanish bo‘yicha komissiyasi rasmiy veb sayti).
34. www.sciencedirect.com – (Xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi).
35. www.scopus.com – (Xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi).
36. www.worldbank.org – (Jahon banki rasmiy veb sayti).
37. www.imf.org – (Xalqaro valyuta fondi rasmiy veb sayti).
38. www.adb.org – (Osiyo taraqqiyot banki rasmiy veb sayti).
39. www.ebrd.org – (Evropa tiklanish va taraqqiyot banki rasmiy veb sayti).
40. www.isdb.org – (Islom taraqqiyot banki rasmiy veb sayti).